

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug‘bek Saydanovich</i> O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO‘RIQLASH, QOROVULLIKNI O‘TASH VA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI TAHLILI	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i> ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i> O‘ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i> THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo‘minov Nodirbek Botir o‘g‘li</i> IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Исламутдинов Вадим</i> СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i> BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i> ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i> ME‘YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI.....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i> YURIDIK TA‘LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo‘raev Anvar Muxamadiyevich</i> IJTIMOIIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i> ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i> ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i> SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i> ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Axmedova Dilbar, Shavkatova Shirin</i> ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i> EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqutova Dilafruz</i> IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i> TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i> ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i> FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i> BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i> FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i> ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i> THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i> SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i> HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
<i>Kamola Hatamova</i> HUUJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	207-210

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i> PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGAMA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i> METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Mutalipova Lola Farxhadovna</i> SMART-KONTRAKTY I BLOKCHAYN: VYZOVY DLYA DOGOVORNOGO PRAVA V RESPUBLIKE UZBEKISTAN.....	223-234
<i>Normurodova Aziza Azimjon kizi</i> PRAVOVOE REGULIROVANIYE SEKSUALNOGO NASILIYA S ISPOLZOVANIEM .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloevna</i> RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i> MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI.....	253-261
<i>Davydova Ruffina Arturovna</i> ROL' GUMANNOY PEDAGOGIKI V PREODOLENIYE AGRESSII I OTCHUZHDENIYA SREDI SHKOL'NIKOV	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i> OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i> DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i> TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i> MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i> IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i> TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

Received: 2 June 2025
Accepted: 15 June 2025
Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT DOCUMENTATION

Kamola Hatamova

Institute of Uzbek Language Literature and Folklore, UzRFA
Department of Terminology, PhD student
E-mail address kamolahatamova@gmail.com

Abstract. The article discusses the theoretical and scientific foundations of commercial documentation. The state programs related to language policy, presidential decrees, resolutions, and the stages of the formation of documentation are covered.

Keywords: commercial documents, history of documentation, language policy, ancient commercial documents.

HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Kamola Hatamova

O'zRFA O'zbek tili adabiyoti va folklori instituti
Terminologiya bo'limi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada tijorat hujjatlarining nazariy va ilmiy asoslari muhokama qilinadi. Til siyosatiga oid davlat dasturlari, Prezident farmonlari, qarorlari, hujjatlashtirishni shakllantirish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tijorat hujjatlari, hujjatchilik tarixi, til siyosati, qadimgi tijoriy hujjatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N36>

Kirish. Tijorat hujjatlari tilining lingvistik xususiyati haqida haqida gap ketganda albatta birinchi galda uning tarixiy tendensiyalari xususan hujjatchilik tarixi uning shaklanish bosqichlariga to'xtalish o'rinli.

Hujjatchilik insoniyat tarixida axborotni yozma tarzda qayd etish va uzatish vositasi sifatida shakllangan muhim ijtimoiy institutdir. Hujjatchilik insoniyat tafakkurining yozma ifodasi hamdir. U tarixiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy-siyosiy tuzum, iqtisodiy munosabatlar va madaniyatning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Hujjatlar nafaqat boshqaruv va tartibot vositasi, balki tarixiy, huquqiy va tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim manba sifatida qadrlanadi. Ularning shakli, mazmuni va til uslubi jamiyat taraqqiyotining ko'zgusidir.[1] Hujjatchilik tarixiga kirishar ekanmiz qadimgi sharq sivilizatsiyalariga murojaat qilmay ilojimiz yo'q. Ma'lumki qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida – Misr, Bobil, Xitoy va Hindistonda yozma hujjatlar, odatda loy taxtachalar, papiruslar va pergamentlarga yozilgan. Bu hujjatlar asosan diniy matnlar, qonunlar, soliq ro'yxatlari va mulkiy bitimlardan iborat bo'lgan. Masalan, Mesopotamiyada savdo bitimlari mixxat yozuvida rasmiylashtirilgan.[2] O'zbekiston hududida esa qadimgi Sug'd, Baqtriya va Xorazm davlatlarida yozma hujjatlar qo'llanilgan bo'lib, ular ko'pincha diniy-ma'muriy va tijorat mazmuniga ega bo'lgan.[3] Mamlakatimiz hududida rasmiy

ish yuritish uslubiga oid dastlabki hujjatlar milodiy III-IV asrlarda yaratilgan Tuproqqal'a manzilgohidan topilgan qadimgi Xorazm podshohlarining arxiviga tegishli yozuvlar hisoblanadi. Bu haqda P.S Tolstoy o'zining "Древний Хорезм", Древние делти Окса и Яксартрой" kabi kitoblarda talay ma'lumotlar keltirilgan.[4]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston hududida hujjatchilik islom davlatchiligi rivoji bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. IX–XII asrlarda Movarounnahrda hujjat yozish san'ati taraqqiy topdi, xususan Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi shaharlar hujjat markazlariga aylandi. Hujjatlar arab tilida, so'ngra forsiy va chig'atoy tillarida yozila boshlandi. Ular rasmiy, huquqiy va diniy uslubda bo'lib, odatda kirish (sarxil), asosiy qism va xulosa kabi qismlardan iborat bo'lgan.[5] XV asrga kelib esa hujjatchilikning lisoniy taraqqiyotiga Navoiy asarlari o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Alisher Navoiy – nafaqat buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi, balki hujjatchilik (ish yuritish), davlat boshqaruvi, adolat, rasmiy muomala madaniyati haqida ham chuqur mulohazalar bildirgan mutafakkirdir. Uning asarlarida hujjatchilikka oid bevosita amaliy ko'rsatmalar, ma'rifiy yondashuvlar va axloqiy asoslar bilan boyitilgan fikrlar uchraydi. Alisher Navoiyning nasriy asari "Mahbub ul-qulub" da turli ijtimoiy tabaqalar vakillari, xususan, munshiylar (kotiblar) va muhrdorlar faoliyati haqida to'g'ridan-to'g'ri fikrlar yuritilgan.

- "Kotib elga lutf ila xat yozgay, xalq manfaatdin bitig bitgay" – ya'ni kotibning yozgan hujjatlari xalq manfaatiga xizmat qilishi kerak.

- Adolatli va aniqlik bilan yozilgan hujjatlar davlatni obod etadi, noaniq va shaxsiy manfaati bilan yozilgan xatlar esa xalqni chalg'itadi. Kotiblik – bu savod emas, bu axloq, ehtiyotkorlik va davlat manfaatini tushunishdir kabi mulohazalari uchraydi.[6]

"Nasoyim ul-muhabbat" garchi bu asar sof tasavvufiy xarakterga ega bo'lsa-da, unda hukmdorlar, devon a'zolari va rasmiy kotiblar qanday bo'lishi kerakligi haqida ijobiy siyratlar orqali tasvirlar berilgan:

- To'g'rilik, halollik, so'z va yozuvda adolat – bu fazilatlar davlat ishlarida, jumladan, hujjat tayyorlashda bo'lishi kerakligiga urg'u beriladi.

Navoiydan keyingi davrlar XVIII–XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida hujjatchilik yuksak darajada rivojlangan. Bu davrda farmon, yorliq, tilxat, bitim, tazkira, bayonnoma kabi hujjatlar mavjud bo'lib, ular davlat boshqaruvi, diplomatiya va tijoratda keng qo'llanilgan. Hujjatlarda rasmiy va diniy iboralar ("Tavakkal alalloh", "voqe bo'ldi", "shohidlar huzurida") ishlatilgan.[7] Chig'atoy tili asosiy yozish tili bo'lib, arab yozuvida ifodalangan. Sintaksis jihatidan murakkab, ko'plik shakllar va passiv gaplar ko'p qo'llanilgan.[8]

Muhokama. Sovet davrida tijorat hujjatlari rus tilida yuritilgan, standartlashtirilgan iboralar, sxematik tuzilmalar, passiv gaplar va rasmiy leksika hukmron bo'lgan. Masalan, "ushbu bitim asosida...", "tomonlarning roziligi bilan...", "belgilangan muddatda bajariladi" kabi iboralar keng qo'llangan.[9]

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston SSRda hujjatchilik va ish yuritish tizimi SSRning yagona davlat boshqaruv tartibiga bo'ysungan holda shakllandi. O'zbek tili 1929-yildan boshlab lotin yozuviga, 1940-yildan esa kirill yozuviga o'tkazildi. Shunga qaramay, o'zbek tilida ish yuritish jarayoni ancha cheklangan bo'lib, rus tili mutlaq ustunlik qilgan. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston SSRda hujjatchilik va ish yuritish tizimi SSRning yagona davlat boshqaruv tartibiga bo'ysungan holda shakllandi. O'zbek tili 1929-yildan boshlab lotin yozuviga, 1940-

yildan esa kirill yozuviga o'tkazildi. Shunga qaramay, o'zbek tilida ish yuritish jarayoni ancha cheklangan bo'lib, rus tili mutlaq ustunlik qilgan.

Rasmiy hujjatlar asosan rus tilida tayyorlangan. Masalan, hukumat qarorlari, qonunlar, buyrug'-u farmoyishlar avval rus tilida yozilib, keyinchalik o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Tarjimalarda ko'plab chalkashliklar, noto'g'ri terminlar uchrad. O'zbek tilining hujjatchilikda qo'llanilishi cheklangani sababli o'zbek tilidagi ish yuritish uslubi, maxsus terminlar va huquqiy nutq shakllanmay qoldi.[10] O'zbek tilida yozilgan hujjatlar faqat mahalliy darajada, past bo'g'inlarda yuritilgan. Viloyat, tuman darajasidagi tashkilotlarda o'zbek tilidagi hujjatlar uchrashi mumkin edi, ammo ular ham ko'pincha rus tilidan nusxa ko'chirish yo'li bilan amalga oshirilgan.

Shunga qaramay, ayrim davrlarda va sohalarda o'zbek tilida hujjat yuritishga urinishlar bo'lgan:

- 1930–1938-yillar oralig'ida, ya'ni sovet davrining ilk yillarida o'zbek tilining nisbatan faol qo'llanilgan davridir. Bu davrda lotin yozuvida yozilgan hujjatlar ishlab chiqilgan.
- 1950–1980-yillarda ayrim sohalarda (masalan, xalq ta'limi, madaniyat, qishloq xo'jaligi) o'zbek tilida ish yuritish qisman saqlanib qolgan bo'lsa-da, asosiy normativ hujjatlar rus tilida bo'lgan. Sobiq sho'rolar davrida o'zbek tili rasmiy maqomga ega bo'lsa-da, amalda u rus tilining soyasida bo'lib kelgan. Hujjatchilikda rus tiliga tobelik, o'zbek tilidagi hujjatlar sifatsiz tarjimalar bilan chegaralangan edi. O'zbek tilining hujjat tili sifatidagi imkoniyatlari faqat mustaqillikdan keyin jiddiy rivojlanish bosqichiga o'tdi.

Natijalar. Mustaqillikdan so'ng O'zbek tilida hujjat yuritish qonun bilan belgilandi. Rasmiy-idoraviy uslub me'yorlari ishlab chiqildi. Hozirgi tijorat hujjatlarida o'zbek tiliga xos so'zlar ("shartnoma", "majburiyat", "ijaraga beruvchi") kengaytirildi, lekin hali-hamon rus tilidan o'tgan konstruksiyalar saqlanmoqda.[11]

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlat tilining huquqiy maqomi tobora mustahkamlandi. Ayniqsa, 2019-yildan boshlab ish yuritish tizimida o'zbek tilining qo'llanilishi sezilarli darajada kengaydi. Bu jarayon davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi va uni qonuniy asosda mustahkamlash bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Til siyosatining samarali yuritilishi uchun davlat tilini nafaqat rasmiy aloqa vositasi sifatida, balki ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy sohalarda to'liq joriy etish zarurligi tan olindi. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrda "O'zbek tili davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida" bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Unda quyidagicha ta'kidlangan:

"Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborimizni mustaqillikka bo'lgan ehtirom, ona vatanga sadoqat deb bilishimiz kerak. Davlat tilining mavqeyini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar hayotiy qadriyatimizga aylanishi lozim".[12]

Ushbu chiqish ortidan 2019-yil 21-oktyabrda Prezident Farmoni qabul qilindi:

Xulosa. PF-5850-son Prezident Farmoni (2019-yil 21-oktyabr) "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Mazkur hujjat o'zbek tilining davlat siyosati darajasidagi mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, unda: Davlat tilini hayotning barcha sohalarida to'liq joriy etish; Vazirlar Mahkamasi tarkibida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etish; Alisher Navoiy nomidagi universitet huzurida Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'rgatish markazini barpo etish choralari belgilandi.[13] "O'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida" PF-6084-son Prezident Farmoni (2020-yil 20-oktyabr). Bu farmon bilan 2020–2030-yillarga mo'ljallangan til siyosati konsepsiyasi tasdiqlandi, O'zbek tilini rivojlantirish yo'nalishlari, jumladan, ta'lim, hujjatshunoslik, OAV va diplomatiyada tilning to'laqonli qo'llanilishi ta'minlanishi belgilandi, 2021-yil 1-apreldan boshlab rahbar kadrlarning o'zbek tilini bilish darajasi milliy test tizimi asosida baholanishi joriy etildi. [14] O'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishiga oid mazkur Farmonlar davlat hujjatchiligida muhim burilish yasadi. Endilikda davlat idoralarida hujjatlar rasmiy ravishda o'zbek tilida yuritilishi, til siyosati bo'yicha muassasalar faoliyati ilmiy asosda yo'lga qo'yilishi ta'minlanmoqda. Bu esa o'z navbatida, davlat boshqaruvi, huquq, ta'lim va OAV tizimida tilning mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abdullayev, S. (2020). Hujjatlar bilan ishlash madaniyati. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Zamanov, U. (2016). Qadimgi Sharq madaniyati. Samarqand: Ilm ziyo.
3. Karomatov, B. (2018). Sug'd va Baqtriya yozma yodgorliklari. Buxoro: Sharq nashriyoti.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологическое исследования. М.: МГУ, 1948; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. - М.: Изд. Восточной литературы. 1962.
5. Aliboev, I. (2019). O'zbek tilida rasmiy hujjatlar tili. Toshkent: Filologiya jurnali.
6. Hayitmetov A. Alisher Navoiy va uning davlat boshqaruvidagi faoliyati - T.: Fan, 1983.
7. Hayitmetov A. (2017). Markaziy Osiyo xonliklari hujjatlari: Tarixiy-lingvistik tahlil. Samarqand: Imkon nashriyoti.
8. Nurmuxamedov, B. (2018). Chig'atoy tili va hujjat uslubiyati. Buxoro: Sharq.
9. G'aniyev, M. (1985). Sovet hujjatlari tili. Moskva: Nauka.
10. Sadiqova N. "O'zbek tili ish yuritish terminologiyasi" – Toshkent, 2020.
11. Xolboev, A. (2021). Mustaqillik davrida rasmiy til uslubi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabr kuni O'zbek tili davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlab aytgan nutqi – <https://daryo.uz/2019/10/21>
13. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019-y., PF-5850-son – <https://lex.uz/docs/4543076>
14. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020-y., PF-6084-son – <https://lex.uz/docs/5051761>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).